

"Navoiy davlat pedagogika institutining o'quv-laboratoriya va yordamchi xo'jalik binolarini kapital, joriy ta'mirlash hamda loyihalash ishlarini amalga oshirishda pudratchi tashkilotlarni tanlovi baholash komissiyasini tuzish to'g'risida"

293 AFO  
2021.22.06

O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to'g'risidagi Qonuni (09.04.2018y. O'RQ-472), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tovarlarni (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakli va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 23-avgustdagi PQ-3237-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, huzurlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 992-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligining 2018-yil 15-maydagi 185-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom, (O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2018-yil 26-mayda 3016-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi "Kapital qurilishda tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 302-sonli Qaroriga asoslanib, Navoiy davlat pedagogika institutining o'quv-laboratoriya binolari va yordamchi xo'jalik binolarini kapital va joriy ta'mirlash, rekonstruksiya hamda loyihalash ishlarini uchun pudratchi tashkilotlar bilan shartnoma tuzishga va o'tkaziladigan tendir va savdolariga tayyorgarlik ko'rishda barcha zaruriy chora-tadbirlarni belgilash va tashkil etish maqsadida.

### B U Y U R A M A N :

1. Yuqorida qayd etilgan O'zbekiston Respublikasi Qonuni, Prezident qarori, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari va "xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibida"gi Nizom rahbarlik va ijro uchun qabul qilib, Navoiy davlat pedagogika institutining rejalashtirilgan xarajatlarni smetasiga kiritilgan qurilish, rekonstruksiya, kapital va joriy ta'mirlash ob'ektlari bo'yicha qurilish-montaj (ta'mirlash) ishlarini o'z vaqtida va sifatli amalga oshirish maqsadida tendir va tanlov savdolarini o'tkazish belgilansin.

2. Tendir va tanlov savdolarini o'tkazish bo'yicha baholash komissiyasi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

### 3. Baholash komissiyasiga:

O'zbekiston Respublikasining davlat xaridlari to'g'risidagi Qonuni (09.04.2018y. O'RQ-472), O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tovarlarni (ishlar, xizmatlar)ning davlat va korporativ xaridlarini amalga oshirishning zamonaviy shakli va uslublarini yanada joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017-yil 23-avgustdagi PQ-3237-sonli qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 18-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, huzurlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi 992-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi loyiha boshqaruvi milliy agentligining 2018-yil 15-maydagi 185-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

(O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligidan 2018-yil 26-mayda 3016-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan) va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 3-iyuldagi "Kapital qurilishda tendir va tanlov savdolari tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 302-sonli Qaroriga qat'iy amal qilgan holda ish olib berishi belgilansin.

4. Navoiy davlat pedagogika instituti rektorining 2020-yil 5-iyundagi AFO-336-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblanis.

5. Buyruq ijrosini nazorat qilish Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor X. Tursunov zimmasiga yuklatilsin.


ASOS: Bosh muxandis M.Raximovning 2021 yil 21 iyundagi bildirishi.

Rektor \_\_\_\_\_ **B.B.Sobirov**

Kelishildi:

Prorektor \_\_\_\_\_ X. Tursunov  
Bosh xisobchi \_\_\_\_\_ B. Rustamov  
Bosh muxandis \_\_\_\_\_ M. Raximov  
Bosh auditor \_\_\_\_\_ F. Qutbeddinov  
Reja-moliya bo'limi boshlig'i \_\_\_\_\_ S. Xudoyberdiyev  
\_\_\_\_\_ B. Yaxsyoyev

Katta yuriskonsult



Loyiha kirildi \_\_\_\_\_ M. Raximov  
22.06.2021y.

Navoiy davlat pedagogika  
institutining 2021 yil «22»  
iyundagi 293 AFO-sonli  
buyruq'iga 1-ilova.

Navoiy davlat pedagogika institutining o'quv-laboratoriya va yordamchi xo'jalik  
binolarini kapital, joriy ta'mirlash va foyihalash ishlarini amalga oshirishda pudratchi  
tashkilotlarni tanlovchi baholash komissiyasining

**T A R K I B i:**

1. Baholash komissiyasi raisi:  
Sobirov.B.B NDPI rektori
2. Baholash komissiyasi raisi o'rinbosari:  
Tursunov.X.X NDPI Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha  
prorektor.
3. Baholash komissiyasi a'zolari:
  - Raximov.M.S NDPI bosh muhandisi.
  - Rustamov.B.O NDPI bosh xisobchisi.
  - Xudoyberdiyev.S.Ya NDPI reja-moliya bo'limi boshlig'i.
  - Qutbeddinov.F NDPI bosh auditori
  - Jurayev.J NDPI texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi boshlig'i.
  - To'xtayev.A NDPI fuqaro va mehnat muxofazasi bo'limi boshlig'i.
  - Yaxyoyev.B Katta yuriskonsult
4. Baholash komissiyasi kotibi:  
- Mardiyev.B NDPI texnik foydalanish va xo'jalik bo'limi  
katta tovarshunos. (ovaz berish huquqiga ega  
emas)

*Eslatma: Baholash komissiyasi tarkibiga kiruvchi xodimlar boshqa lavazimga o'tgan  
taqdirda, baholash komissiyasi tarkibida ushbu lavazimlarda yangidan tayinlangan  
shaxslar kiritiladi.*